

\_\_\_\_-sonli BOSH BITIM  
("Revolver" ochiq liniyalik kredit ajratish bo'yicha)

\_\_\_\_\_.\_\_\_\_.20\_\_ yil  
(joyi) (sana)

Bir tarafdin AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "KREDITOR" deb ataluvchi) nomidan 20\_\_ yil \_\_\_\_dagi \_\_\_\_- / \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi  
(cana) (raqami)

\_\_\_\_ boshlig'i \_\_\_\_  
(HKXKM/KXKM) (F.I.Sh.)

timsolida va ikkinchi tarafdin "\_\_\_\_"  
(tadbirkorlik sub'ekti nomi)

jamiyati (bundan buyon matnda "QARZDOR" deb ataluvchi) nomidan ustav asosida faoliyat yurituvchi jamiyat direktori \_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

timsolida (birgalikda "TARAFLAR" deb ataluvchi), ushbu Bosh bitimni (bundan buyon matnda "Bitim" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. BITIMNING MAZMUNI

1.1. KREDITOR Bitimda nazarda tutilgan shartlar asosida pul summasini (mablag'larini) (bundan buyon matnda "kredit" va/yoki "kredit summasi" deb yuritiladi) QARZDORga alohida tuziladigan Kredit shartnomalariga binoan berish, QARZDOR esa olingan kredit summasini maqsadli ishlatish, kreditning asosiy summasi va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Bitim va Kredit shartnomasi bir birining ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3. Agar Kredit shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, Bitimda ko'rsatilgan shartlar qo'llaniladi.

### 2. KREDIT FOIZLARI

2.1. Mazkur Bitim bo'yicha yillik foiz stavkasi \_\_\_\_ (\_\_\_\_) foiz.  
(son bilan) (so'z bilan)

2.2. Kredit uchun foizlar kredit berilgan kundan boshlab kunlik hisoblab boriladi.

2.3. Bank tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha resurslar qiymatining o'zgarishiga qarab, Mazkur Bitimning foiz stavkasi o'zgartirilishi mumkin.

### 3. KREDIT MIQDORI

3.1. KREDITOR mazkur Bitim doirasida alohida Kredit shartnomalariga asosan QARZDORga \_\_\_\_ (\_\_\_\_) so'mgacha miqdorda kredit  
(summasi) (summasi so'z bilan)

mablag'lari ajratadi.

3.2. Alohida Kredit shartnomalariga asosan ajratilgan kreditlarning umumiy qoldig'i Bitimda belgilangan summadan oshmasligi lozim.

### 4. HISOB-KITOB SHARTLARI VA TARTIBI

4.1. QARZDOR ajratilgan kreditni teng miqdordagi to'lovlar orqali qaytaradi.

4.2. Hisoblangan foizlar har oyning 20-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

4.3. Kredit bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelganida, KREDITOR qarzdorlik summasini QARZDORning hisobvarag'idan so'zsiz (memorial order bilan) undirib olishi mumkin.

4.4. Mazkur bitim tuzilishi munosabati bilan QARZDORga ko'rsatilgan va/yoki ko'rsatilayotgan barcha bank xizmatlari uchun QARZDOR Tarifda nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda KREDITORga bank xizmat haqi to'laydi, agar Bank Boshqaruvi qarori bilan boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa.

4.5. KREDITOR tomonidan yangi tahrirdagi Tariflarni bankning rasmiy veb sayti ([www.aloqabank.uz](http://www.aloqabank.uz))da e'lon qilinishi, QARZDORni bu haqda xabardor qilingan deb hisoblash uchun yetarli bo'ladi va uning shartlari Taraflar uchun majburiy hisoblanadi.

4.6. Boshqa majburiy to'lovlar bo'lmasa QARZDORning to'lovlari quyidagi navbatga muvofiq qarzni so'ndirishga yo'naltiriladi:

- a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.7. KREDITOR va uchinchi shaxslar QARZDORning hisobvarag'iga bir vaqtning o'zida to'lov talabnomalari taqdim etgan hollarda (agar 2-kartoteka bo'lmasa), uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlardan avval, birinchi navbatda kreditni qaytarishga doir majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi (birinchi navbatdagi to'lovlardan va sud qarorlari bo'yicha to'lovlardan tashqari).

## **5. KREDIT AJRATISH MUDDATI**

5.1. Kredit Bitimda belgilangan shartlar asosida alohida tuziladigan Kredit shartnomalariga ko'ra 12 oygacha bo'lgan muddatga ajratiladi. Bosh bitim muddati 36 (o'ttiz olti) oy \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ gacha.

(sana)

## **6. KREDIT AJRATISH SHARTLARI**

6.1. Kreditlash QARZDOR tomonidan Bitim shartlari bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

6.2. QARZDOR mazkur Bitimda kelishilgan kredit ta'minotini taqdim etganidan va ushbu ta'minot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilganidan so'ng Kredit shartnomasi tuzilishi mumkin.

6.3. Oxirgi hisobot davriga yillik moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan taqdirda Kredit shartnomasi tuziladi.

## **7. KREDITLASHNING UMUMIY SHARTLARI**

7.1. KREDITOR oldidagi majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar boshqa kreditorlar oldida QARZDORning to'lov qobiliyati yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar olmaydi.

7.2. KREDITORga taqdim qilgan biznes-reja ko'rsatkichlariga to'liq amal qilinishini ta'minlaydi.

7.3. Quyidagilarning istalgan bittasi yoki bir nechtasining yuzaga kelganligi QARZDOR tomonidan majburiyatlarning lozim darajada bajarilmayotganligidan dalolat beradi:

- a) Mazkur Bitim yoki Kredit shartnomalari bo'yicha har qanday to'lovning muddatida amalga oshirilmasligi;
- b) kreditning to'liq yoki qisman maqsadsiz ishlatilishi;
- d) kredit hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha tovarlarning to'liq yoki qisman yetkazib berilmasligi, shuningdek ishlar yoki xizmatlarning to'liq hajmda bajarilmasligi;
- e) buxgalteriya hisobi va/yoki hisobotining buzilishi, ularning qalbakilashitirilishi, soxtalashtirilishi yoki noto'g'ri hisobotlarni taqdim etilishi;

f) ma'lumot va/yoki hujjatlarning qalbakilashitirilishi, soxtalashtirilishi yoxud noto'g'ri ma'lumot va/yoki hujjatlarning taqdim etilishi;

g) KREDITORga faoliyati va hisobot hujjatlarini tekshirishga to'sqinlik qilinishi yoki hujjatlarini taqdim etishdan bosh tortilishi;

h) Kredit ta'minotiga zarar yetkazilganligi yoki talon-taroj qilinishi;

i) uchinchi shaxslar oldida muddati o'tgan majburiyatlarning mavjudligi;

j) kredit ta'minoti o'z likvidligi, qiymati va kuchini yo'qotishi.

7.4. Bitimning 7.3.-bandida belgilangan holatlar yuzaga kelganida KREDITOR quyidagilardan biri yoki bir nechtasini amalga oshirishi mumkin:

a) kreditning foydalanilmagan qismidan foydalanish imkoniyatini cheklaydi;

b) kredit berishni to'xtatadi;

d) kreditni muddatidan oldin qaytarishni talab qiladi yoki undirib oladi;

e) sudlarga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi;

f) qonunchilikda belgilangan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

## **8. KREDITNI QAYTARISH**

8.1. QARZDOR kredit va/yoki foizlarni to'lash muddatini bir kunga kechiktirgan taqdirda, KREDITOR kreditning qolgan barcha summasini tegishli foizlar bilan birga muddatidan oldin qaytarishni talab qilishi mumkin.

8.2. QARZDOR Kreditni muddatidan oldin qaytarishi mumkin.

8.3. Qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda Bitim va alohida kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan qat'iy nazar zudlik bilan kredit va hisoblangan foiz to'lovlarini to'liq miqdorda to'laydi.

## **9. MA'LUMOT VA AXBOROTLARNI OLISH**

9.1. KREDITOR QARZDORning moliyaviy ahvoli hamda faoliyati natijalariga doir zaruriy hujjatlarni olish, ularni tahlil qilish, zarur hollarda tegishli hujjatlar yuzasidan izoh talab qilishi mumkin.

9.2. QARZDOR talabga ko'ra statistika idoralari tasdiqlagan shakllarda tuzilgan balans va moliyaviy hisobotlarni nazorat va maqsadli tekshiruvlar o'tkazish uchun KREDITORga o'z vaqtida taqdim etadi.

9.3. QARZDOR o'z buxgalteriya hisobini olib borishda buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga amal qiladi hamda o'zining moliyaviy hisobotlarini har yili audit tekshiruvidan o'tkazib turadi.

9.4. QARZDOR quyidagi hollarda KREDITORni yozma ravishda xabardor qiladi;

a) sho'ba xo'jalik jamiyatlari (sho'ba korxonalar) tashkil etganda;

b) ustav kapitali (fondi) kamaytirilganda;

d) qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilishi, qo'shib olinishi, bo'linishi, ajralib chiqishi, o'zgartirilishi);

e) vakolatli organlar tomonidan QARZDORga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llanilganda;

f) bankrot deb topish to'g'risida ariza sudga taqdim etilganda va h.k..

9.5. QARZDORning moliyaviy ahvoliga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi, majburiyatlarning bajarmaslik ehtimolini keltirib chiqaruvchi har qanday noxush o'zgarishlar yoki yuzaga kelgan shart-sharoitlar to'g'risida darhol KREDITORga xabar beradi.

9.6. QARZDOR o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirayotganligi yoki qayta tashkil etayotganligi to'g'risida KREDITORni oldindan xabardor qiladi.

## **10. TA'MINOT**

10.1. QARZDOR mazkur Bitim doirasida KREDITOR oldida yuzaga keladigan majburiyatlar ta'minoti sifatida " \_\_\_\_\_ " ga tegishli garov, ta'qiq va boshqa majburiyatlardan holi bo'lgan:

---

(garov mulklari nomi)

---

---

garovdarini hamda \_\_\_\_\_ ning to'liq kafilligini (bundan buyon  
(Kafilni nomi)

matnda "Kredit ta'minoti" deb yuritiladi) taqdim etadi.

10.2. Taraflar Bitimning 10.1.-bandida ko'rsatilgan Kredit ta'minotining boshlang'ich sotish narxini \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm deb kelishdilar.  
(summasi) (summasi so'z bilan)

10.3. KREDITOR bozor konyukturasidagi o'zgarishlar yoki monitoring natijalaridan kelib chiqib, Kredit ta'minotining baholashni talab qilishi mumkin.

10.4. Kredit ta'minotining bozor narxi pasaygan, yaroqsiz holga kelib qolganligi yoki unga zarar yetkazilganligi oqibatida Bitim bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli emas bo'lib qolganida, QARZDOR qo'shimcha ta'minot taqdim etadi.

10.5. QARZDOR kredit yoki foizlarni Bitimda kelishilgan muddatda qaytarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 280-moddasiga muvofiq, undiruvni garov predmetiga qaratish uchun asoslar vujudga kelgandan keyin, qarzdorlikni garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan undirishi mumkin.

10.6. QARZDOR Kredit ta'minotini but va ishchi holda saqlanishini ta'minlaydi, shuningdek ta'minot taqdim etuvchi tarafidan but va ishchi holda saqlanishini nazorat qilib boradi.

10.7. QARZDOR Kreditning kamida 125 (Bir yuz yigirma besh) foiz miqdorda ta'minlanganligini ushlab turadi.

10.8. Kredit ta'minoti qonunchilikda belgilangan asoslarga ko'ra (jumladan, jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik uchun) olib qo'yilganda yoki Kredit ta'minotiga zarar yetkazilganda QARZDOR 10 (o'n) bank ish kuni ichida Bitim bo'yicha majburiyatlarini to'liq qoplay oladigan boshqa ta'minotni taqdim etadi.

## **11. KREDIT MONITORINGI**

11.1. KREDITOR kreditni maqsadli ishlatilishini bevosita joyiga chiqqan holda o'rganishi mumkin.

11.2. KREDITOR Kredit ta'minotini bevosita joyiga chiqqan holda o'rganishi mumkin.

11.3. Kredit ta'minotini davriy ravishda tekshirib, uning but saqlanayotgani, yetarliligi va likvidligini aniqlash, Kredit ta'minoti bo'yicha QARZDOR o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarayotganligini nazorat qilib borishi mumkin.

11.4. Kreditdan bosqichma-bosqich yoki qismlarga bo'lgan holda foydalanilganda, mablag'larning maqsadli ishlatilganligini asoslovchi hujjatlarni ular rasmiylashtirilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kunidan, shuningdek tegishli oyning oxirgi sanasidan kechiktirmasdan KREDITORga taqdim qiladi.

## **12. BITIMNI IJRO QILISHDAN BIR TARAFLAMA BOSH TORTISH**

12.1. QARZDOR Bitim yoki Kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, KREDITOR uning kredit mablag'laridan foydalanish bo'yicha to'lov topshiriqnomasini ijroga qabul qilmasligi yoki ijroga qabul qilingan to'lov hujjatini ijrosiz qaytarishi mumkin.

12.2. QARZDOR Bitim yoki Kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, KREDITOR Bitimdan kelib chiqib, yana kredit shartnomasini tuzmasligi mumkin.

### **13. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

13.1. QARZDOR kreditni qaytarish muddati buzilgan hollarda quyidagi hajmda oshirilgan foizlar to'laydi: to'lov kechiktirilgan muddatga – 1,5 baravar yillik 39,0%.

13.2. QARZDOR mazkur bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganida yoki lozim darajada bajarmaganida kredit summasining 0,5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

13.3. QARZDOR tomonidan kredit mablag'lari maqsadsiz ishlatilganligi aniqlangan taqdirda, KREDITOR maqsadsiz ishlatilgan kredit summasining 1 (bir) % miqdorida jarima undiradi.

13.4. Bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda javob beradi.

13.5. Mazkur bitimda nazarda tutilmagan javobgarliklar amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

### **14. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILUVCHI HOLATLAR**

14.1. Taraflar yengilmas kuch ta'siridagi holatlar (fors-major), ya'ni taraflar oldini ololmaydigan, ularning irodasi va xohishidan tashqari vujudga keladigan holatlar natijasida mazkur bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklarini isbotlab bera olsalar va taraflar o'z majburiyatlarini bajarish uchun mavjud barcha choralarni ko'rgan bo'lsalar, javobgarlikdan ozod etiladilar.

14.2. Fors-major holatlarga yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, epidemiya, texnik fojealar, xarbiy harakatlar, favqulotda vaziyatlar, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, bank to'lov tizimi ishdan chiqishi, elektr tarmoqlarining uzilishi va boshqa shu kabi holatlar kiradi.

14.3. Fors-major holati natijasida mazkur bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmagan taraf boshqa tarafga ushbu haqida fors-major holati vujudga kelgan kundan boshlab 3 (uch) kun ichida xabar berishi shart.

14.4. Fors-major holatlar vujudga kelgan hollarda, bitim bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi fors-major holat davom etgan muddatga kechiktiriladi.

### **15. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

15.1. Mazkur bitimni bajarilishi bilan bog'liq tarzda taraflar o'rtasida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar o'zaro kelishuv orqali hal etiladi.

15.2. Vujudga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan o'zaro hal etilmasa, ular sud tartibida ko'rib chiqiladi.

### **16. BITIMNI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI VA TARTIBI**

16.1. Bitimni bir taraflama o'zgartirishga yoki bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi, mazkur Bitimda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

16.2. Mazkur bitimni bekor qilmoqchi yoki o'zgartirmoqchi bo'lgan taraf ikkinchi tarafga bitimni bekor qilish yoki o'zgartirish shartlarini ko'rsatgan holda bitimni bekor qilish to'g'risida taklif yuboradi.

16.3. Mazkur bitimni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi taklifni olgan taraf, uni olgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida taklifni ko'rib chiqib, ikkinchi tarafga javob xati yuboradi.

16.4. Taklifni olgan Taraf ikkinchi Tarafga taklif yuzasidan javob xati yubormagan taqdirda, taklif yuborgan taraf bitimni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi da'vo ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin.

16.5. Mazkur bitimga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar yozma shakldagi qo'shimcha bitimlar bilan rasmiylashtirilgan holda uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi va imzolangan kundan qonuniy kuchga kiradi.

### **17. BITIMNI AMAL QILISH MUDDATI**

17.1. Mazkur Bitim taraflar tomonidan imzolagan sanadan boshlab qonuniy kuchga kiradi va 3 (uch) yil davomida amal qiladi.

17.2. Taraflar bitimdan kelib chiquvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarib bo'lgunlariga qadar amal qiladi.

### **18. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR**

18.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajaradi, ikkinchi tomonning qaror qabul qilishga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

18.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

18.3. Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda (*yoki bankning Komplayens nazorat boshqarmasi/Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi rahbariga aloqa kanallari yordamida*) xabar berish majburiyatini oladi.

18.4. Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

18.5. Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

### **19. BITIMNING YAKUNIY SHARTLARI**

19.1. Mazkur bitim har biri bir xil yuridik hujjat maqomiga ega bo'lgan ikkita nusxada tuzilib, bir nusxadan taraflarda saqlanadi.

19.2. O'zlarining yuridik manzillari o'zgargan taqdirda, taraflar bir-birlarini bu haqda xabardor qilishlari shart.

19.3. Mazkur bitim shartlari, unga kiritilgan qo'shimchalar va bitim yuzasidan taraflar olgan boshqa ma'lumotlar konfidensial hisoblanib, oshkor etilmaydi. Ushbu shart tomonlar vakolatli davlat organlariga axborot berishi, shuningdek qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda rasmiy organlarga hisobot taqdim etishi hollariga dahldor emas.

19.4. Mazkur bitimda nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonun hujjatlariga asosan hal etiladi.

### **20. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:**

**“KREDITOR”**

**“QARZDOR”**

AT“Aloqabank” \_\_\_\_\_  
(HKXKM/KXKM)

“ \_\_\_\_\_ ”



vak.h/r  
MFO  
STIR  
Manzil:  
Tel:.

x/r  
MFO  
STIR  
Manzil:  
Tel:.

\_\_\_\_\_ direktori:  
(HKXKM/KXKM)

\_\_\_\_\_  
Direktor:

\_\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.Sh)  
Bosh buxgalter:

\_\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.Sh)  
Bosh buxgalter:

\_\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.Sh)

\_\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.Sh)

M.O'.

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh)

\_\_\_\_ shahri  
(joyi)

\_\_\_\_.\_\_\_\_.20\_\_ yil  
(sana)

Bir tarafdin AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "KREDITOR" deb ataluvchi) nomidan 20\_\_ yil \_\_\_\_dagi \_\_\_\_ - / \_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi  
(cana) (raqami)

\_\_\_\_ boshlig'i \_\_\_\_  
(HKXKM/KXKM) (F.I.Sh.)

timsolida va ikkinchi tarafdin "\_\_\_\_" mas'uliyati cheklangan  
(tadbirkorlik sub'ekti nomi)

jamiyati (bundan buyon matnda "QARZDOR" deb ataluvchi) nomidan ustav asosida faoliyat yurituvchi jamiyat direktori \_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

timsolida (birgalikda "TARAFLAR" deb ataluvchi), ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA SHARTLARI

1.1.KREDITOR QARZDORga \_\_\_\_ yil \_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli Bosh bitimda  
(sana) (raqami)

belgilangan shartlar asosida aylanma mablag'larni to'ldirish uchun quyidagi shartlar asosida kredit mablag'lari ajratadi:

- kredit summasi \_\_\_\_ (\_\_\_\_) so'm;  
(summasi) (summasi so'z bilan)
- kredit muddati \_\_\_\_ oy;  
(muddati)
- kreditning yillik foiz stavkasi \_\_\_\_ foiz.  
(foizi)

2. Ushbu shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh bitim bilan tartibga solinadi va Bosh bitimning ajralmas qismi hisoblanadi.

3. Agar ushbu shartnomada boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, Bosh bitimda ko'rsatilgan shartlar qo'llaniladi.

#### "KREDITOR"

AT "Aloqabank" \_\_\_\_  
(HKXKM/KXKM)

vak.h/r

MFO

STIR

Manzil:

Tel.:

\_\_\_\_ direktori:

(HKXKM/KXKM)

\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter:

\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.SH.)

M.O'.

Yuridik xizmat boshlig'i

#### "QARZDOR"

"\_\_\_\_" MChJ  
(tadbirkorlik sub'ekti nomi)

x/r

MFO

STIR

Manzil:

Tel.:

Direktor:

\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter:

\_\_\_\_  
(imzo) (F.I.SH.)

M.O'.

